


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**O'RGANILAYOTGAN MAMLAKATDA  
TIL VAZIYATI VA SIYOSATI  
(YAPONIYA)  
FANINING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lif sohasi:** 230000 – Tillar  
**Mutaxassislik:** 70230101 - Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)

Toshkent – 2022

ЛЮБОВЬ ПАВЛОВНА КОВАЛЕВА

ПОДПИСЬ МИХАИЛА РУБЦОВА

С.Н.Рубцов

(БП)

М

С.Н.Рубцов

Fan/modul kodi OMTV1204		O'quv yili 2022-2023	Semestr 2		ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy fan		Ta'lif tili o'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Ma'ruba (soat)	Amaliyot (soat)	Mustaqil ta'li m (soat)	Jami yukla ma (soat)
	“O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati” (Yaponiya)	24	24	72	120
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b>				
	Ushbu “O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati” fanning dasturini tuzishda mamlakatimizda so'nggi yillarda chet tilini o'qitish borasida olib borilayotgan davlat siyosati bilan bog'liq o'zgarish va islohatlar hamda talablar e'tiboriga olindi.				
	Dastur mamlakatimiz ta'lif tizimida chet tillarni o'rganish uchun ishlabchiqilgan "Xorijiy tillar bo'yicha o'quv fanlaridan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladiga majburiy talablar" dan kelib chiqqan holda tuzildi.				
	Namunaviy dastur birinchi kurs magistratura bosqichi talabalariga 24 soat ma'ruba va 24 soat amaliy dars sifatida o'tishga mo'ljallangan.				
	Mazkur fan yapon adabiy tili bilan turli lahjalarning boshqa tilshunoslik fanlari orasidagi o'mini va xorijiy tilni o'rganishda yapon adabiy tili va muloqotning boshqa shakllari (turli shevalar va maishiy-so'zlashuv til ) bilishning ahamiyatini o'rganadi. Shuningdek Yaponiyada sodir bo'lgan turli jtimoiy-siyosiy jarayonlar va til siyosati ta'sirida tilning lug'at tarkibi dagi o'zgarishlarni o'rganadi.				
	Fanning asosiy maqsadi talabalarmi Yaponyaning Meiji davriga qadar va undan keyingi davrlardagi til vaziyatining o'iga xos xususiyatlari, hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rgnish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralengvistik omillar haqida ma'lumot berishdir. Mazkur fanning vazifalaridan biri tashqi omillarning til holatiga ta'siri hamda tilning lug'at tarkibidagi o'zgarishlarda gayraygo ( o'zga tildan kirib kelgan so'zlar ) va xushmuomila uslubdagi				

leksikaning qo'llanilishining rolini o'rganish hisoblanadi.Ushbu fan vazifalarida yapon tili lug'at tarkibidagi o'zlashgan so'zlarni ishlatalish yo'llarini ko'rib chiqish ijtimoiy-siyosiy kataklizmalar davridagi holatini o'rganish ham ko'zda tutilgan.

Mazkur fanni o'rganish magistrlik dissertatsiyalarini yozishda magistrlarga katta yordam beradi. Chunki tilda yuz berayotgan jarayonlarni tilning lug'at tarkibiga ta'sirini bilish tilni yanda chuqur o'rganishda yordam beradi.

## **II. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1- mavzu. O'rgani layotgan mamlakatda til vaziyati fanga kirish**

Mazkur kirish qismda Meidzi davriga qadar va undan keyingi davrlarda Yaponiyadagi til vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralolingvistik omillar bilan tanishtiriladi. Mazkur fanning vazifalaridan biri sotsiolingvistik omillarning til holatiga ta'siri hamda tilning lug'at tarkibidagi o'zfarishlarda gayraygoning rolini o'rganish, yapon tili lug'at tarkibidagi neologozatsiya jarayononi ko'rib chiqish, ijtimoiy-siyosiy kataklizmalar davridagi holatini o'rganish ham ko'zda tutilganligi haqida so'z yuritiladi.

#### **2- mavzu. Tilning aloqa xususiyatlari**

Etnolingvistik va til vaziyatlari o'rtasida yaqin aloqa va o'zaro ta'sir mavjud. Til vaziyati mamlakatda istiqomat quluvchi ma'lum bir etnoslar yoki ba'zi bir guruh etnoslarining o'zaro muomalasida qo'llaniladigan til tuzulmalarini tashkil etadi. Ichki etnik muomala odatda bir emas, balki bir qancha til tuzulmalar (dialekt, sheva, adabiy tillar) yordamida amalga oshiriladi. Qisqa qilib aytganda, etnoslar orasida xizmat qiluvchi til tuzilmalari ham ijtimoiy-funksional differensiatsiyaga uchraydi.

#### **3- mavzu. Yapon tilining paydo bo'lishi**

Mamlakatdagi til tuzilmalarining tarqalishiga ta'sir etuvchi etnik omillar va jarayonlardan tashqari, qator boshqa omillar ham mavjud bo'lib, ular til vaziyatlariga bevosita ta'sir etadi va ularni o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday omillarga birinchi navbatda, til siyosati, ya'ni davlat, jamiyat tomonidan til vaziyatini saqlash yoki o'zgartirish uchun mavjud lingvistik mezonlarni barqarorlashtirish yoki o'zgartirish uchun qo'llanilgan choratadbirlar tizimi kiradi. Har qanday davlatda til siyosati birinchi navbatda o'zaro etnik muomala Yapon tilining paydo bo'lishida bir qancha jihatlar mavjud.

#### **4- mavzu. Til va ommaviy kommunikatsiya**

Zamonaviy yapon tili leksikasi turli xil uslubiy qatlamlari mavjud bo‘lgan rang-barang manzarani o‘zida namoyon etib, ular o‘rtasidagi chegara ko‘pincha ancha mujmal va noaniqdir. Yangi tuzilgan leksika sonini doimiy o‘sishi faqat burungi vosita bilan yangi tushunchalarini ifoda etish zarurligi bilan emas, balki qator tashkilotlar va ommaviy kommunikatsiyalar tomonian o‘zlashtirilgan so‘zlarni yapon so‘zlariga o‘zgartirish va so‘z ishlatish turg‘un mezonlarining yo‘qligi bilan ifodalanadi.

#### **5- mavzu. Zamonaviy dunyoda yapon tili**

Ikkinchisi jahon urushidan keyin xitoy tilining o‘rni ancha pasaydi, biroq yapon tili leksikasida avvalgidek xitoy tilidan o‘zlashtirilgan juda ko‘p so‘zlar saqlanib qoldi. Yaponqa AQSHning iqtisidiy va siyosiy ta’sirini kuchayishi hamda boshqa ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlar bilan savdo aloqalarining kengayishi munosabati bilan ingliz tili keng tarqala boshladi: ingliz maktablari ochildi, qator oliv va o‘rta o‘quv yurtlarida darslar ingliz tilida olib borildi, radio va televideniya bo‘yicha ingliz tilida eshittirishlar olib borildi.

#### **6- mavzu. Zamonaviy yapon adabiy tilining turli xil og‘zaki hamda yozma variantlari**

Yapon adabiy tilining turli xil og‘zaki hamda yozma variantlarining ishlatilishini faollashuvi, eng kam ishlatilishdan doimiy ishlatilishga o‘tish avvallari faqat kitobiy leksikaga kirgan va hozirda til dalili sifatida qayta paydo bo‘lgan katta miqdordagi lug‘at birliklari uchun xarakterlidir. Biroq, zamonaviy yapon tilining lug‘at tarkibini to‘ldirish va rivojlantrish jarayoni faqat xitoy omlining kuchayishi bilan chegaralanmaydi. Shu bilan parallel ravishda yapon lug‘at tarkibi, uning ichki manbalari asosida dinamik rivojlantrish jarayoni ham ketayapti.

#### **7- mavzu. Yapon yozuvining kelajagi haqida baxs - munozaralar**

Ko‘p yillar mobaynida Yapon yozuvini asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan ierogliflarni sonini kamaytirish va yozilish shakllarini soddalashtirish haqida yapon olimlari tomonidan juda ko‘p baxs-munozaralar o‘tkazilib kelinmoqda. Yozuv tizimini o‘zgartirish masalasi davlatining til siyosati darajarida bir necha marta ko‘rilib chiqilishi ahamiyatga molikdir.

#### **8- mavzu. Zamonaviy yapon tilida “yangi dialekt”**

Yapon tilida bir qancha dialektlar mavjud. Tokiyo dialekti, Okinawa dialekti, Kansai dialekti, Nohoku dialekti va boshqalar. Zamonaviy davrda tilning rivojlanishi zamonaviy yapon tili so‘z yasovchi zahiralaridan keng ko‘lamda foydalanish, mavjud dialektlar qo‘shilmasidan yangi dialektlar kelib chiqishi bilan xarakterlanadi.

## **9- mavzu. Yapon tili dunyosida “Nazokatlilik” konsepti**

“Nazokatlilik” konsepti hurmat iboralarida insonlar bilan aloqadorlik, joy, tushunish, tarkib, shakl singari 5ta muhim omil mavjud bo‘lib, bularning barchasi o‘ziga hos rol o‘ynaydi. Ayniqsa shular ichida insonlar bilan aloqadorlik va joy qisqa qilib aytganda “holat joyi”ga qaratilgan fikrlar o‘ta muhimdir. Barcha hurmat iboralari, avvalo holat joyiga to‘g’ri kelishi haqidagi fikr bilan boshlanadi desak to‘g’ri bo‘ladi “o” va “go” hurmat formasi qo‘sheimchalari ishlatiluvchi so‘zlar mayjud.

Ma’ruza mashg‘ulotlari multimedia qurulmalari bilan jihozlangan audito riyada akadem. guruhlar oqimi uchun o‘tiladi.

### **III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tarjima jarayonida old ko‘makchilarni tarjima qilishdagi o‘ziga xosliklar
2. Tarjima jarayonida sinonimlar va ularning tarjimada tutgan o‘rnii
3. Matnlarda antonimlarning qo‘llanilishi va ularning tarjima xususiyatlari
4. Ommaviy axborot vositalari (OAV) tili tarjima xususiyatlari
5. Badiiy matnlar tilining tarjima xususiyati
6. Ijtimoiy matnlar tilining tarjima xususiyati
7. Davriy nashrlarda, xususan gazeta va jurnallarda sarlavhalarning berilishi usullari
8. Reklama materiallarining tarjimasi

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

### **IV.Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Yaponiyaning zamонавија va о‘rta asr til vaziyatini taqqoslash
2. O‘zbekistondagi zamонавија va о‘rta asr til vaziyatini taqqoslash
3. Til sotsial ko‘rsatgich va faktor sifatida
4. Shaxsning muloqot xulq atvorining ijtimoiy aspektlarining tahlili

5. Zamonaliv Yaponiyada shevalar
6. Ierogliflarni o‘rganish usul va metodikasi haqida
7. Ijtimoiy tabaqalanish va hurmat shakllarining xususiyatlari
8. Yapon linnomadaniyatida frazeologizmlar
9. Zamonaliv Yaponiyada “Gayraygo”
10. Yapon tili yozuvining o‘ziga xos xususiyatlari

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va Movie maker, pinnacle studio, In Shot, bandicam dasturlarida taqdimot va videotaqdimotlar qilish tavsiya etiladi.

**3. V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida magistr:

- servis va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish sohasida: shaxs psixologiyasini o‘ziga xos xususiyatlarini inobatgab olgan holda turli muassasalarda turistik rahnamolik (gid), havo kemalarida servis xodimi, turli firma va mehnixonalardamenejer xizmatini ko‘rsata olish ko‘nikmalariga haqida **tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;**
- o‘rganilayotgan tilda chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiy masalalarda to‘laqonli jonli muloqot olib borishi haqidagi nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish; olish malakalarini **shakllantirish** muhim hisoblanadi
- har turli va murakkab matnlarni o‘qitilayotgan tildan asosiy o‘rganilayotgan tilning hozirgi adapib shakliga yozma tarjima qila olish;
- Talaba o‘rganilayotgan chet tili va o‘qitilayotgan tildagi ma‘lumotlarni qo‘llab annotatsiya, referat yozish, ma‘lumotlar to‘plash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**

**4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- Ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalari;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalari.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida

	mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Халмурзаева Н., Языковая ситуация Японии, Ташкент, 2009й.</li> <li>Шеров С., Япон тили грамматикаси, Ташкент, 2009й.</li> <li>Имаи М., История культуры Японии, Ташкент, 2007г.</li> <li>Имаи М., Общество и культура современной Японии, Ташкент, 2009г</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: "O'zbekiston", 2016.-56b.</li> <li>В.М. Алпатов, Япония: язык и общество. Изд. Муравей, Москва 2003</li> <li>Бан Норико, Гогаку кёику-но никонго то сэйкатцу го то ситэно никонго.(Японский язык в обучение и японский язык как язык повседневной жизни)// Академия №36. Нагоя, 1984</li> <li>Дзёсэйго то кэйго (женский язык и формы вежливости) Специальный выпуск журнала «Кокубунгаку» Токио, 1966</li> <li>Идэ Сатико, Каванари Мико, Нихонно дзёсэйго, сэkkайно дзёсэйго. //ТС.1984, №3</li> <li>В.М. Алпатов, Система личных местоимений 1-го и 2-го лица в современном японском языке/ Теория и типология местоимений. Москва 1980</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Internet saytlari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li><a href="http://www.ziyo.net">www.ziyo.net</a></li> <li><a href="http://www.wikipedia.com">www.wikipedia.com</a></li> <li><a href="http://www.geocities.co.jp">www.geocities.co.jp</a></li> <li><a href="http://www.dic.academic.ru/dic.nsf/tuwiki">www.dic.academic.ru/dic.nsf/tuwiki</a></li> <li><a href="http://www.orient.pu.ru">www.orient.pu.ru</a></li> <li><a href="http://www.narutoclan.ru">www.narutoclan.ru</a></li> <li><a href="http://www.komi.com/Japanese">www.komi.com/Japanese</a></li> <li><a href="http://www.rusarticle">www.rusarticle</a></li> <li><a href="http://www.scopus.com">www.scopus.com</a></li> </ol>
7.	O'quv dasturi "Yapon filologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 20 <u>22</u> -yil " <u>30</u> " <u>iyun</u> dagi " <u>1</u> "-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
	O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20 <u>22</u> -yil " <u>30</u> " <u>iyun</u> dagi " <u>1</u> "-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

<b>8.</b>	<b>Fan/modul uchun mas'ul:</b> Xalmurzayeva N.T. – TDShU “Yapon filologiyasi” kafedra mudiri, Ph.D, dotsent.
<b>9.</b>	<b>Taqrizchilar:</b> Gafurova X.Sh.– Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, Ph.D. J. Xikmatullayev– TDShU, “Yapon filologiyasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi PhD.